

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/11 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamonova</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

AKHMAD TASHKUPRIZADA'S APPROACH TO CLASSIFYING THEORETICAL PHILOSOPHY

Ergashev Urolbek Berkinovich

doctor of philosophy (PhD) in philosophical sciences
acting associate professor of the department of "Social-humanitarian sciences and history" of the Tashkent international university
of financial management and technologies

Abstract. In the history of the development of scientific knowledge, there has been a constant inextricable link between the issue of the classification of sciences and philosophy and its relationship to other sciences. Some areas that many scientists in the Middle Ages considered to be sciences in the East are not considered sciences today. While one group of scientists considered some knowledge to be sciences, some considered these knowledge to be parts (sections) or subjects of another science. Over a long period, the concepts of knowledge, science, science, subject, and art have been intertwined. As an example, we can cite Tashkuprizada's work "Mawdu'at al-ulum". This article discusses the issue of the classification of the science of "Theoretical Philosophy" written in the work "Mawdu'at al-ulum".

Keywords: Toshkuprizada, "Mawdu'at al-ulum", theoretical philosophy, classification, Farabi, "Ihsa al-ulum", metaphysics, natural sciences, mathematical sciences.

NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI

Ergashev Urolbek Berkinovich

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix" kafedrasi dotsenti v.b.
E-mail: urolbekjanoblari@gmail.com
<http://www.orcid.org/0009-0005-4139-0564>

Annotatsiya. Ilmiy bilish rivojlanishi tarixida ilmlar tasnifi masalasi bilan falsafa va uni boshqa fanlarga munosabati orasida doimiy uzviy bog'liqlik bo'lgan. O'rta asrlarda Sharqda ko'plab olimlar ilm-fan deb hisoblagan ba'zi sohalar hozirgi kunda ilm sifatida ko'rilmaydi. Bir guruh olimlar ba'zi bilimlarni ilm-fan deb hisoblagani holda, ba'zilari bu bilimlarni boshqa bir ilmning qism (bo'limi)lari yoki mavzusi deb hisoblaganlar. Uzoq davr mobaynida bilim, ilm, fan, mavzu, san'at tushunchalari aynilashtirildi. Bunga eng avvalo misol sifatida Toshko'prizodaning "Mavduot al-ulum" asarini ko'rsatishimiz mumkin. Mazkur maqolada "Mavduot al-ulum" asarida yozilgan "Nazariy falsafa" ilmining tasnifi masalasi muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Toshko'prizoda, "Mavduot al-ulum", nazariy falsafa, tasnif, Forobiy, "Ihsa al-ulum", metafizika, tabiatshunoslik, matematik ilmlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N20>

Kirish. Bizga ma'lumki, "tasnif" so'zining etimologik kelib chiqishi arabcha so'z bo'lib, "saralash", "tartibga solish", "tizimlashtirish" kabi ma'nolarni bildiradi. Zamonaviy ilm-fanda aksariyat holatlarda tasnifning o'rniga "klassifikatsiya" atamasi ishlatiladi. Ilmlar tasnifi – ilm

yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o'zaro bir xil tushunchalar sistemasi hisoblanadi. Ilmlar tasnifi sohasidagi dastlabki haqiqiy tadqiqotlar yunon mutafakkirlari tomonidan olib borilgan bo'lsada, Sharqda ham bu borada sezilarli yutuqlarga erishilgan. Ayniqsa, Kindiy, Forobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, G'azzoliy kabi mutafakkirlarning ilmlar tasnifi borasidagi tadqiqotlari mazkur sohaning keyingi taraqqiyotini belgilab bergan.

Sharqda ilmlar tasnifi sohasidagi ko'plab tadqiqotlarni o'rganish asnosida Markaziy Osiyolik qomusiy olimlar – al-Forobiy, al-Xorazmiy va Ibn Sinolarning shu sohadagi ilmiy ijodlari boshqa ko'plab Sharq va G'arb olimlarining dunyoqarashiga samarali ta'sir ko'rsatganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Birgina al-Forobiyning "Ihsa al-ulum" nomli asarini olaylik. Ushbu asar lotin tiliga ikki marta, har ikki galda ham o'sha davrning yirik ilmiy markazlaridan biri – Toledoda arab tilidan mashhur tarjimonlar Ioan Sevilskiy (1157-yilda vafot etgan) va Gerard Kremonskiy (1187-yilda vafot etgan) tomonidan tarjima qilingan. Keyinchalik XV asr olimi Dominiko Gundissalina tomonidan lotin tiliga qilingan tarjima "Ihsa al-ulum"ning aniq tarjimasidir. Uning qo'lyozmasi keyinchalik Iroq va Madridda topilgan va e'lon qilingan. Al-Forobiyga mansubligi aniqlangan "Ilmlarning kelib chiqishi" asarining asl nusxasi shu paytgacha topilmagan.

Ushbu asar qadimiy yahudiy, so'ngroq nemis, ispan, ingliz, fransuz, turk, qisman rus tillariga ham tarjima qilingan. Forobiyning ilmlar tasnifiga doir risolasidan turli fan sohiblari: musiqashunos Simon (1369 yilda vafot etgan), mantiqshunos va filolog Raymon Lulley (1235-1315) va boshqalar keng foydalangan [1; B.175]. Bulardan tashqari Sharqda ilmlar tasnifiga bag'ishlangan yana ko'plab asarlar bizgacha yetib kelgan. Ana shunday muhim manbalardan biri Ahmad Toshko'prizodaning ilmlar tasnifiga bag'ishlangan "Mavduot al-ulum" asaridir. Mutafakkir "Nazariy falsafa"ning tasnifini mana shu asarida yozib qoldirgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. "Mavduot al-ulum" asari 1541 yilda yozilgan bo'lib, asardagi ilmlar tasnifi o'z davri uchun mukammal klassifikatsiya edi. Bu asar nafaqat o'z davrida balki, keyingi davrlarda ham ko'pgina olimlarning ilmiy tadqiqotlariga turtki bo'lgan. XVII asrda yashab ijod etgan turk olimi – Hoji Xalifa (Kotib Chalabiy) "Kitob kashf az-zunun an-asami al-kutub va-l-funun" nomli asarini yozishda Toshko'prizodaning "Mavduot al-ulum" asaridan foydalangan. Turk olimining o'z davrida mavjud bo'lgan barcha ilmlarni juda mukammal shaklda bayon etgan tasnifi o'zidan oldin o'tgan Toshko'prizodaning tasnifini nafaqat saqlab qolgani va uning an'alarini davom ettirganini, balki ularni ma'lum darajada to'ldirganini va rivojlantirganini qayd etish lozim.

Shuningdek, 1741 yilda Istanbulda Usmoniylar imperiyasi madrasalarida darslik sifatida o'qitish uchun Fransiya elchixonasi buyurtmasiga asosan yozilgan "Kavakib al-sabo" asarida ham "Mavduot al-ulum"dan foydalanilgan. Undan tashqari XIX asrning ikkinchi yarmida mashhur hind olimi Hasan Kannujiy "Abjad al-ulum" asarini yozishda bevosita "Mavduot al-ulum" asaridan va Kotib Chalabiyning "Kashf al-zunun an-asami al-qutub va al-funun" nomli risolasidan keng foydalangan.

Hozirgi kunga kelib "Mavduot al-ulum" asarida keltirilgan ilmlar tasnifi mazmun jihatidan o'z ahamiyatini yo'qotgan. Chunki, tasnifda keltirilgan aksariyat ilmlar iste'moldan chiqib ketgan, ba'zilar esa mustaqil fan sifatida e'tirof etilmaydi. Lekin, mazkur asarni puxta tadqiq etish orqali ilmlar tasnifi masalasining jamiyat ilmiy tafakkuri taraqqiyotiga bo'lgan ta'sirini o'rganishimiz, tahlil qilishimiz, bu borada yangi ilmiy xulosalarni olishimiz mumkin.

Muhokama. Toshko'prizoda, nazariy falsafa haqida quyidagicha fikrni bayon qiladi: "Ma'lumki, nazariy falsafadagi tadqiqotlar bu olamdan tashqaridagi hamda zamin darajasidagi materiyadan xoli bo'lgan borliq ustida olib boriladi. Yoki bu olamdan tashqarida mavjud bo'lgan, ammo materiyaga ega bo'lmagan borliqda amalga oshiriladi. Yoki ham olamdan tashqarida, ham shu zaminda materiyaga ega bo'lgan borliqda amalga oshiriladi" [2].

Mutafakkirning talqinicha, falsafiy ilmlar bilan diniy ilmlar o'rtasida ixtilof yo'q, chunki ular bir-birlarini to'ldirib turadilar. Falsafiy fikr yuritishning boshlanishini Idris payg'ambarga taqagan Toshko'prizoda, hikmat sultonlari deb Suqrot, Aflotun va Arastu kabi faylasuflarni zikr etgan [3; B.13-14.]. Ko'rinib turibdiki, Toshko'prizoda falsafaning vujudga kelishini payg'ambar bilan bog'lagan.

Ma'lumki, "Nazariy falsafa" zamonaviy olimlar tomonidan eng ko'p bahs etiladigan tasnif sifatida e'tirof etiladi. "Mavduot al-Ulum" asarida Toshko'prizoda "Nazariy falsafa"ni to'rtinchi bo'lib tasniflangan [4; B.221-366.]. Asarda "Nazariy falsafa" 3 qismga bo'lingan bo'lib, jami 121 ta ilmni qamrab olgan.

Nazariy falsafa 3 ta asosiy guruhga: metafizika, tabiatshunoslik (tabiiy fanlar), matematik ilmlarga bo'linadi. Toshko'prizoda o'z navbatida metafizika ilmini inson qalbini bilish ilmi; farishtalarni bilish ilmi; oxirat hayotini bilish ilmi; bashorat belgilari to'g'risidagi ilm; tafovut darajasi to'g'risidagi ilm; klassifikatsiya ilmlariga bo'lgan.

"Mavduot al-ulum" asarida tabiatshunoslik ilmining tasnifi murakkab shaklda amalga oshirilgan bo'lib, bu ilm tibbiyot; veterinariya; lochin ovi ilmi; o'simlik haqidagi ilm; hayvonlar haqidagi ilm; dehqonchilik ilmi; mineral (ruda)lar haqidagi ilm; qimmatbaho toshlar haqidagi ilm; vujudga kelish va yo'q bo'lish haqidagi ilm; kamalak haqidagi ilm; fizionomika (odamning tashqi qiyofasi va mimikalariga qarab ichki, ruhiy holatini aniqlash san'ati) haqidagi ilm; yangidan (boshqatdan) izohlash (sharhlash) haqidagi ilm; astrologiya ilmi; afsun ilmi; tumor haqidagi ilm; jodu (sehrgarlik) ilmi; al-kimyo ilmini qamrab oladi.

Bu o'rinda tibbiyot ilmi ham anatomiya; ko'z muolajalasi ilmi; 1taom (ovqatlanish) va mehmondo'stlik ilmi; farmakognoziya (dorivor moddalarni tekshiruvchi fan); ichimlik (sharbat) va pasta (dorivor aralashma) haqidagi ilm; og'riq (izlar)ni bartaraf etish haqidagi ilm; kal (axlat)larning tarkibi haqidagi ilm; jarrohlik; qon olish ilmi; zuluk vositasida qon olish ilmi; tibbiyotda foydalaniladigan me'yor va o'lchovlar haqidagi ilm; ishq (jinsiy aloqa) ilmlarini o'z ichiga oladi.

Tasnifdagi fizionomika ilmi o'z navbatida xol va tug'ma dog'lar haqidagi ilm; kaft chiziqlari orqali fol ochish (xiromantiya) haqidagi ilm; elka (kift) haqidagi ilm; odamning tashqi qiyofasi haqidagi ilm; xilvatxonalar va cho'l (dasht)larning masofalari haqidagi ilm; quyish haqidagi ilm; metall (mineral) izlab topish ilmi; narigi dunyo mavhumligi (noma'lumligi) haqidagi ilm; bashorat (oldindan aytish, karomat ko'rsatish) ilmlaridan tashkil topgan.

Toshko'prizoda astrologiyani tanlash (ixtiyoriy) haqidagi ilm; qumda fol ochish haqidagi ilm; fol ochish ilmi; tarmoqlanish haqidagi ilm; qushlar va alomatlar (qushlar parvozi orqali ko'rsatkichlarni bashorat qilish) ilmlariga ajratgan holda tasniflagan.

Shuningdek, Toshko'prizoda "Mavduot al-ulum" asarida afsun haqidagi ilmni 15 ta tarkibiy qismga ajratib tasniflagan. Bular kelajakni oldindan bashorat qilish ilmi; bashorat qilish (olov yordamida fol ochish) ilmi; palma yaprog'i bilan afsun qilish ilmi; tumor (tumor sifatida taqib yuriladigan narsalar) haqidagi ilm; sehr-jodu haqidagi ilm; spiritizm haqidagi ilm; yulduzlarning vazifalari haqidagi ilm; sir saqlash haqidagi ilm; yashirish haqidagi ilm;

ustomonlik (ayyorlik, o'ylab chiqarishga ustalik) haqidagi ilm; shubha-gumonlarni izohlash va buzg'unchilikni fosh etish ilmi; nayrangbozlik (firibgarlik), ko'z tegish va quruq xayol qilish haqidagi ilm; qalb (yurak)ga bog'lanish ilmi; medikament va dorivor o'simliklarga (foydalanishga ko'mak berish) ishqibozlikda diqqatli munosabatda bo'lish ilmlaridir.

Ahmad Toshko'prizoda nazariy falsafaning matematik ilmlar guruhini 4 asosiy qismga ajratgan [4; B.312.]. Bular geometriya, astronomiya, son (hisob) ilmi va musiqa ilmi. Bu o'rinda geometriya ilmi – binokorlik ilmi; optika; oyna (shisha) kuydirish ilmi; og'irlik markazi haqidagi ilm; og'irlik siljishi haqidagi ilm; maydonlarni o'lchash ilmi; harbiy mexanizm haqidagi ilm; otish haqidagi ilm; o'zgartirish (to'g'rilash, tuzatish) haqidagi ilm; ziyraklikka moslashish haqidagi ilm; kemalar qatnovi (kema yuritish san'ati) haqidagi ilm; suzish haqidagi ilm; vazn va o'lchov (mezon) haqidagi ilm; bo'sh maydonlarda zarur qurilishlarni olib borish mexanizmi haqidagi ilmlarni qamrab oladi.

Tasnifda astronomiyaning tarkibiy qismlari sifatida yulduzlar jadvali va kalendar (taqvim) ilmi;*kalendar tuzish ilmi; yulduzlar hisob-kitobi ilmi; meteorologiya (ob-havo va boshqa meteorologik hodisalar haqidagi fan) ilmi; kuzatish asboblari haqidagi ilm; vaqt haqidagi ilm; soya (ko'lanka) o'lchash asbobi haqidagi ilm; shar haqidagi ilm; shar harakati haqidagi ilm; sharning yuzasi (tekisligi)ni o'lchash ilmi; yulduzlarning joylashuvi haqidagi ilm; osmon miqdori (o'lchovi) haqidagi ilm; oy joylashuvi haqidagi ilm; geografiya; davlatlar va shaharlar yo'li haqidagi ilm; jala yoshg'iri va uning hajmi haqidagi ilm; mavsum (iqlim) xususiyatlari haqidagi ilm; mavsum (almashuvini) va mintaqa haqidagi ilm; bir xillik (o'xshashlik, bir-biriga to'g'ri keltirish) haqidagi ilm; jang maydoni haqidagi ilm; yil mavsumlari haqidagi ilm; ibodat qilish vaqti haqidagi ilm; usturlob asbobidan foydalanish ilmi; usturlob bilan ishlash ilmi; aylana choragiga oid bilimlarni jamlash va muvofiqligini ishlash haqidagi ilm; aylana choragi haqidagi ilm; soat asboblari haqidagi ilmlar keltirilgan.

Mutafakkir o'z navbatida son (hisob) ilmini ham 10 ta tarkibiy qismga bo'lgan. Bular pastki qism va qiyalikni hisoblash ilmi;*algebra va al-muqobala; hisoblashdagi xatoliklar haqidagi ilm; vasiyat (buyruq, farmoyish) va davriy sikllarni hisoblash ilmi; merosni o'lchash (taqsimlash) ilmi; havo darajasi (atmosfera)ni o'lchash ilmi; marjonlarni o'lchash ilmi; son (miqdor, hisob) aloqadorligi haqidagi ilm; juft va toq sonlar haqidagi ilm; urushdagi talofatlar miqdori haqidagi ilmlardan iborat. Shuningdek, Toshko'prizoda musiqa ilmini 3 ta qismga: hayratomuz musiqa asboblari haqidagi ilm; raqs haqidagi ilm; tannozlik (ishvagarlik) haqidagi ilmlarga ajratgan holda tasniflagan.

Natijalar. Toshko'prizoda Aristoteldan farqli ravishda "Nazariy falsafa"ni tasniflashda qo'shimcha "matematika"ni ham alohida ilm sifatida kiritgan. Bunday holat al-Forobiy, al-Xorazmiy va Ibn Sinoda ham uchraydi. Lekin ularning "matematika" ilmi tasnifi mazmunan yaqin bo'lsada, Toshko'prizodaning tasnifida ilmlar soni ancha ortgan. Shuningdek, Toshko'prizoda boshqa olimlardan farqli ravishda "musiqa ilmi"ni ham tarkibiy qismlarga ajratgan. Tasnifda keltirilgan al-kimyo, astrologiya, afsun ilmi, jodu ilmi, inson qalbini anglash (bilish), farishtalarni anglash, oxiratdagi hayotni bilish, bashorat belgilari, tafovut darajasi, lochin ovi, kaft chiziqlari orqali fol ochish (xiromantiya), xilvatxonalar va cho'l (dasht)larning masofalari, bashorat qilish, qumda fol ochish, fol ochish, qushlar parvozi orqali ko'rsatkichlarni bashorat qilish, afsun, sehr-jodu, sir saqlash, tannozlik kabi ilmlar hozirgi kunda ilm sifatida ko'rilmaydi.

Toshko'prizoda metafizikani quyi tizimlarigacha bo'lgan ilmlarini ham tasniflashi uning mustaqil yondashuvi natijasidir. Boshqa mutafakkirlarda bunday tasnif uchramaydi. Shuningdek, tibbiyot va veterinariyaning tabiatshunoslik ilmining qismlari sifatida tasniflanishi ham boshqa tasniflarda yo'q. Toshko'prizoda bu o'rinda mantiqan to'g'ri tasnifni amalga oshirgan. Chunki, o'sha davrda tibbiyotda ham, veterinariyada ham ishlatiladigan barcha narsalar tabiiy vositalardan olingan.

Mutafakkir tomonidan metall (mineral) izlab topish ilmining fizionomika ilmiga kiritilishi mantiqsizlikdek tuyilishi mumkin. Aslida esa unday emas. Chunki, O'rta asrlarda bu ilmga aloqador bo'lgan ilmiy tajriba va qonuniyatlar deyarli mavjud bo'lmagan. Shu tufayli insonlar metall yoki minerallar qidiruvini amalga oshirish uchun fizionomika qonuniyatlaridan keng foydalanishgan.

Toshko'prizoda Forobiy singari musiqa ilmini matematikaga oid ilmlar qatorida tasniflashining asosiy sababi – ohang, notalarning o'zgarmas va yaxlit qonuniyati mavjudligidadir. Ya'ni musiqa bastalash ham notalar hisob-kitobi va qat'iy tartibiga bog'liq deb hisoblagan. Xuddi shunday o'lchov va maxsus hisob-kitoblarga asoslanganligi tufayli mutafakkir astronomiyani ham matematikaga bog'lab tasniflagan.

Xulosa. Sharqda ilmlar tasnifi masalasidagi tadqiqotlarning muntazam olib borilganligi fuqarolarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim turtki bo'lib xizmat qildi. Nafaqat Sharq, balki G'arb xalqlari ilmiy tafakkuri rivojlanishida ham Sharq mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqilgan ilmlar tasnifi sezilarli darajada ta'sir o'tkazgan.

Ilmlar mumtoz islom olamida bo'lgani kabi Usmoniylar imperiyasida ham ta'lim-tarbiya jihatidan ikkiga bo'lingan. Birinchi guruh ilmlari islom dini va madaniyatiga bog'liq bo'lgan fanlar bo'lsa, ikkinchi guruh ilmlarini esa falsafaga bog'liq bo'lgan aqliy fanlar tashkil etgan. Garchi ikkinchi guruhga mansub ilmlar dastlab imperiyada rivojlanmagan bo'lsada, XV asrdan boshlab esa sezilarli darajada taraqqiyotga erishgan.

“Mavduot al-ulum” asari nafaqat o'z davrida balki, keyingi davrlarda ham ko'pgina olimlarning ilmiy tadqiqotlariga turtki bo'lganligi hamda islomiy ilmlarning eng quyi sohalarigacha batafsil tasniflanib, ularni sharhlanganligi uning musulmon Sharqi xalqlari orasida ilmiy qiymati yuqori ekanligini belgilaydi. Ahmad Toshko'prizoda tomonidan ishlab chiqilgan tasnif esa, turli ilm tarmoqlari doirasidagi tadqiqotlarning rivojlanishini yanada qulaylashtirgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1971.
2. Murtaza Korlaelçi. Taşköprülüzâde ve Katip Çelebiye göre türk kültüründe felsefenin yeri. <http://www.kaynakca.hacettepe.edu.tr>
3. Çetinkaya B.A., Savut Harun, Meydan Hasan. Akademide felsefe hikmet ve din. Bülent Ecevit Üniversitesi Yayınları No: 3. 2014.
4. Taşköprizade Ahmed Efendi. Mevzuatu'l Ulum, (çevirmesi – Mümin Çevik) Cild I, II – İstanbul, 2011.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).